

ONA TILIDAN IJODIY TOPSHIRIQLARNING TA'LIMGA TATBIQ ETILISHI

Jumaniyazova Dilnoza Zaripboyevna

O'zXIA akademik litseyi

Ona tili va adabiyot fani bosh o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Ona tilidarslarida ijodiy topshiriqlarni ta'lim jarayoniga tabiiq qilish uslublari haqida fikr-mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar: *Ijodiy faoliyat, ta'lim tizimi, metodika, pedagog, mustaqil topshiriqlar.*

Ta'lim tizimida islohotlar munosabati bilan ta'lim oldiga qo'yilgan talablar ona tilini o'qitishda pedagogik texnologiyani rivojlantiruvchi, differensiasiya, shaxsni muayyan maqsadga yo'naltirish, izlanish, muammoli o'qitish, mustaqil ish usullaridan foydalanishni taqozo yetadi. Shuni hisobga olgan holda ona tili darslarini samarali tashkil yetishga yordam beradigan, o'quvchining faolligini oshiradigan mustaqil ish, yarim izlanishli muammoli o'qitish, analiz va sintez, lug'at bilan ishlash kabi vositalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Ma'lumki, ona tili darslarida o'quvchilarning keng miqiyosda mulohaza yuritish va mustaqil fikrlash, qarorlar qabul qilish qo'nikmalari to'liq shakllanmagan bo'ladi. Shu bois, birinchi sinf ona tili darslarida o'quvchilarda asosan mashq ustida ishlash ko'nikmasi shakllantiriladi. Bunda ko'proq o'qituvchi tomonidan bolalar o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilimlarni tayyor holda beradi, o'zi savollar qo'yadi, savol va topshiriqlarning yechimini topish yo'llarini ham o'qituvchining o'zi ko'rsatadi. Bu bilan o'quvchilarga ta'lim berishda yuqori samaradorlikka yerishib bo'lmaydi. Chunki, hozirgi kunning talabi o'quvchilarni faol harakatga keltirishdan iboratdir. Shunday yekan, ona tili mashg'ulotlarida o'quvchilarni faol harakatga keltiradigan, ularni mustaqil fikrlashga undaydigan, mulohaza yuritishga chorlaydigan topshiriq va mashqlarni tavsiya yetish maqsadga muvofiqdir. Ona tili darslarida ijodiy topshiriqlar o'quvchilarning tafakkur doirasini, og'zaki va yozma nutqini va mustavil fikrlashga o'rgatishda muhim o'rin tutadi.

Ijodiy topshiriqli darsni tashkil yetishning mazkur sxematik rejasi u yoki bu o'quv jarayoniga qarab to'liq yoki qisman bajariladi. Ularda ba'zilar o'z yechimlari uchun avvalo xulosalarni, qonun va nazariyani tahlil qilishni talab yetadi, boshqalari faktlarni umumlashtirishni talab qiladi, uchinchilari hodisalarni, tushunchalarni taqqoslashga ko'proq tayanadi. Ijodiy topshiriqlarni bajarishda quyidagilarga amal qilishi kerak: o'quvchilar ma'lum bilimlar doirasidan o'zlariga yetishmayotganlarini aniq chegaralab

olishlari, ya'ni noma'lum topshiriqlarni bilishlari taqozo yetiladi. Ona tili darslarida ijodiy topshiriqlar o'quvchilarning tafakkur doirasini, og'zaki va yozma nutqini va mustaqil fikrlashga o'rgatishda muhim o'rin tutadi.

Ijodiy topshiriqli darsni tashkil yetishning mazkur sxematik rejasi u yoki bu o'quv jarayoniga qarab to'liq yoki qisman bajariladi. Ularda ba'zilar o'z yechimolari uchun avvalo xulosalarni, qonun va nazariyani tahlil qilishni talab yetadi, boshqalari faktlarni umumlashtirishni talab qiladi, uchinchilari hodisalarni, tushunchalarni taqqoslashga ko'proq tayanadi. Ijodiy topshiriqlarni bajarishda quyidagilarga amal qilishi kerak:

- ❖ o'quvchilar ma'lum bilimlar doirasidan o'zlariga yetishmayotganlarini aniq chegaralab olishlari, ya'ni noma'lum topshiriqlarni bilishlari taqozo yetiladi;

- ❖ o'qituvchi yangi bilimga yehtiyoj o'yg'otuvchi ijodiy topshiriqni darsdan oldin loyihalashtirish;

- ❖ har bir o'quvchining va butun bir sinfning individual psixologik imkoniyatlarini qat'iy hisobga olish;

- ❖ ijodiy topshiriq berish uchun vosita sifatida o'qituvchi so'zi, darslik materiali, o'quvchilarning kuzatishlari natijalari, ta'limning texnik vositalari namoyish yetish talab yetiladi.

Umuman olganda didaktik tushunchani faol bilishning bir-biriga zid va uzluksiz jarayoni amalga oshiriladi. Ona tili ta'limi jarayonidagi ijodiy topshiriqlar tizimi muommali suhbatlar, fikr yuritish, isbotlash, umumlashtirish, tahlil kabi tafakkurni rivojlantiruvchi mashqlar hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Hamrayev A.R. Ona tili ta'limini ijodiy tashkil yetish. Pedagogika fanlari nomzodi. Diss. –T.2005.
2. Adizov B.R. Ta'limni ijodiy tashkilotishning nazariy asoslari. Ped. fan. doktori ... diss. –T.: 2003.